



# Xalq so'zi

O'zbekiston —  
kelajagi  
buyuk  
davlat

2024-YIL — YOSHLAR VA BIZNESNI QO'LLAB-QUVVATLASH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2024-yil 19-iyul, № 145 (8768)

Juma

Saytimgiz o'tish uchun QR-kodni  
telefoningiz orqali skaner qiling.



## O'ZBEKISTON VA QIRG'IZISTON KO'P QIRRALI HAMKORLIGIDA YANGI DAVR BOSHLANMOQDA

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning taklifiga binoan Qirg'iz Respublikasi Prezidenti  
Sadir Japarov rafiqasi bilan birga 18-iyul kuni davlat tashrifi bilan mamlakatimizga keldi.



Toshkent shahri xalqaro aeroportida ularni davlatimiz rahbari va rafiqasi kutib oldi.

Oliy martabali mehmon sharafiga ikki mamlakat davlat bayroqlari ko'tarilib, faxriy qorovul saf tortdi.

Qo'shnisiga yaxshilik sog'inib, hamisha tinch bo'lishini tilagan, yutug'idan quvonadigan xalqimiz. Onalarimiz tansiroq

biror yegulik pishirsa, avval bir devor nariga, hamsoyasiga ilingan. O'ziga ravo ko'rganini boshqalar bilan ham bo'lishgan. Bunda katta hikmat bor.

Ota-bobolarimiz bir rozg'orning boshqalardan ayro baxtiyor bo'la olmasligini yaxshi bilgan. Kuch birlikda ekanligini ta'kidlashlarining ma'nosi ham shunda.

Mamlakatimizning keyingi yillarda qo'shni davlatlar bilan do'stona aloqalarni yangi bosqichga olib chiqishga intilayotgani zamirida ham ana shu ko'p yillik qadriyat mujassam.

O'zbekiston Qirg'iz Respublikasi bilan "bir devor" qo'shni. Quda-anda, bordi-keldi, oldi-sotdi masalalari o'ziga xos tarixga ega.

Qirg'iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov Toshkent shahriga kelgach O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri hamkorligida "Yangi O'zbekiston" bog'iga tashrif buyurdi.

Oliy martabali mehmon "Yangi O'zbekiston" bog'ida Mustaqillik monumenti poyiga gul qo'ydi.

Majmua bilan qisqacha tanishuv asnosida Qirg'iz Respublikasi delegatsiyasi vakillariga mazkur ansambl mazmuni va me'moriy yechimlari haqida ma'lumot berildi.

Delegatsiya a'zolari majmuada aks ettirilgan allomalar, buyuk sarkarda va jahongirlar, jaded bobolarimizning siymolariga alohida e'tibor qaratdi.

Shundan so'ng Ko'ksaroy qarorgohida Qirg'iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarovni tantanalı kutib olish marosimi bo'ldi.

Qarorgoh oldidagi maydonda davlat bayroqlari ko'tarildi va faxriy qorovul saf tortdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev oliy martabali mehmonni samimiy kutib oldi va shohsupaga taklif qildi. Harbiy orkestr ikki davlat madhiyalarini ijro etdi.

Yetakchilar faxriy qorovul safi oldidan o'tib, rasmiy delegatsiyalar a'zolarini qutladilar.

Rasmiy kutib olish marosimidan so'ng O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Qirg'iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarovning tor doiradagi uchrashuvi bo'lib o'tdi.

Uchrashuvda ikki mamlakat hamkorligining dolzarb masalalari ko'rib chiqildi.

Suhbat avvalida davlatimiz rahbari oliy

martabali mehmonni samimiy qutlar ekan, keyingi yillarda birgalikdagi sa'y-harakatlar tufayli uzoq muddatli istiqbolga mo'ljallangan ko'p qirrali hamkorlikni tubdan kengaytirish uchun yaxshi zamin yaratilganini alohida ta'kidladi.

Parlamentlar, hukumatlar, tashqi siyosat va tarmoq idoralari darajasidagi muloqotlar natijadorligini oshirish, xalqaro va mintaqaviy maydonlar, jumladan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Jahon savdo tashkiloti, mintaqa davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuvlari, "Markaziy Osiyo pilyus" formatlari doirasida o'zaro qo'llab-quvvatlashni davom ettirish zarurligi ta'kidlandi.

Hamkorlikning yangi iqtisodiy kun tartibini shakllantirish muhimligi qayd etildi.

Transport va energetika infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha yangi loyiha takliflari ko'rib chiqildi.

Prezidentlar hududlararo hamkorlikni, jumladan, Chegaraoldi viloyatlar hokimlari kengashi doirasida yanada kengaytirish muhimligini ta'kidladilar.

Shuningdek, qishloq va suv xo'jaligi, ekologiya, xavfsizlik va boshqa sohalarida o'zaro manfaatli hamkorlikni rivojlantirish masalalari atroficha muhokama qilindi.

Davlat rahbarlari mintaqaviy kun tartibidagi tomonlarni qiziqirgan masalalar yuzasidan ham fikr almashdilar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Qirg'iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov muzokaralarni ikki mamlakat rasmiy delegatsiyalari ishtirokida kengaytirilgan tarkibda davom ettirdilar.

Mazkur sammitga tayyorgarlik doirasida Hukumatlararo komissiya yig'ilishi, biznes forumi, Rektorlar forumi, Avlodlar muloqoti

va qator madaniy tadbirlar muvaffaqiyati o'tkazilgani ta'kidlandi.

Savdo, sanoat kooperatsiyasi, energetika, transport, qishloq va suv xo'jaligi, xavfsizlik, madaniyat va boshqa muhim yo'nalishlardagi hamkorlik natijalari tanqidiy tahlil qilindi.

Muzokaralar davomida tomonlar parlamentlar, hukumatlar, vazirliklar, idoralar va hududlar, ishbilarmolalar, ekspertlar va jamoatchilik darajasida faol aloqalarni davom ettirishga kelishib oldilar. Davlatlararo kengash tuzishga qaror qilindi.

Xalqaro va mintaqaviy tuzilmalar, jumladan, BMT, SHHT, Turkiy davlatlar tashkiloti, Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuvi va boshqa ko'p tomonlama maydonlar doirasida yaqin hamkorlikni davom ettirish zarurligi ta'kidlandi.

Tovar ayirboshlash hajmini ko'paytirish, eng avvalo, import o'rini bosish dasturlari va kooperatsiya loyihalarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha aniq chora-tadbirlar muhokama qilindi.

Shu maqsadda tashrif davomida o'zaro savdo hajmini oshirishga qaratilgan dastur qabul qilinmoqda. Bundan tashqari, yaqin yillarda 2 milliard dollar ko'rsatkichga chiqish uchun poytaxtlarda savdo uylari tashkil etiladi, eksport-import shartnomalari to'plami shakllantiriladi, eksportdoli moliyalashtirish vositalari joriy etiladi, qishloq xo'jaligi va chorvachilik mahsulotlarini tezkor tashish bo'yicha "yashil yo'lak" ishga tushiriladi.

(Davomi 2-betda).

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Matbuot xizmati surati.

### O'zbekiston Respublikasi Prezidentining QARORI

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT MUSTAQILLIGINING O'TTIZ UCH YILLIK BAYRAMIGA TAYYORGARLIK KO'RISH VA UNI O'TKAZISH TO'G'RSIDA

Bundan o'ttiz uch yil oldin o'ta og'ir va murakkab tarixiy vaziyatda qo'lga kiritilgan milliy istiqbolimiz bugungi kunda ko'p millatli butun xalqimizni Yangi O'zbekistonda berpa etishdek buyuk maqsad yo'lida birlashtirib, yangi yutuq va marralar sari ilhomlantirmoqda.

Aynan mustaqillik tufayli mamlakatimiz suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlatga, xalqaro huquqning to'laonli subyektiga aylandi. Dunyo bizni yangitdan tanidi va tan oldi. Yer yuzidagi turli davlatlar va xalqlar bilan do'stlik hamda hamkorlik aloqalarimiz tobora kengayib, yurimizning xalqaro maydondagi mavqei va nufuzi ortib bormoqda.

Ayniqsa, keyingi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lami demokratik islohotlar jarayonida mustaqil davlat bo'lib, dunyoga ochilib yashash, erkin va ozod xalqlar oilasida munosib o'rin egallab, zamonaviy taraqqiyotga erishish naqadar ulug' baxt va sharaft, shu bilan birga, ulkan mas'uliyat ekanini yanada chuqur his etmoqdamiz.

Xalqimizning milliy manfaatlarini ta'minlashga qaratilgan ichki va tashqi siyosat borasidagi tub o'zgarishlar, erishilayotgan amaliy natijalar xalqaro hamjamiyat tomonidan e'tirof etilmoqda va qo'llab-quvvatlanmoqda.

Barchamiz inson qadri oliy mezon bo'lgan yangi hayot, yangi jamiyat qurish yo'lida qo'lga kiritgan zafarlarimizni mustaqil taraqqiyot g'oyasiga hamisha sodiq, yasad va matonatlı xalqimizning fidokorona mehnati, aql-zakovati va bunyodkorlik salohiyati mahsulı deb bilamiz va ana shunday oliyanob elning farzandlarini ekanimizdan cheksiz faxrlanamiz.

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o'ttiz uch yillik shonli sanasini chinakam umumxalq bayrami, ozodlik va saodat ayyomi sifatida ko'tarinki kayfiyatda kutib olish hamda mamlakatimizning bugungi taraqqiyot darajası, yuksalish sur'atlariga munosib tarzda nishonlash maqsadida:

- O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o'ttiz uch yillik bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish bo'yicha respublika komissiyasining (keyingi o'rinlarda — Respublika komissiyasi) tarkibi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.
- Respublika komissiyasi (A. Aripov):  
bir hafta muddatda "Bir bo'lsak — yagona xalqimiz, birlashsak — Vatanimiz!" degan bosh g'oyani o'zida mujassam etgan tashkiliy-amaliy, ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar hamda targ'ibot-tashviqot ishlari dasturini tasdiqlansin.
- keyingi yillarda mamlakatimizda investitsiya va biznes muhitini tubdan yaxshilash, tadbirkorlar uchun imkoniyatlarni har tomonlama kengaytirish, "yashil" va raqamli iqtisodiyotga o'tish bo'yicha hayotga tatbiq etilayotgan yirik dastur va loyihalar

Mazkur dastur "O'zbekiston — 2030" strategiyasi, shuningdek, "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili" bo'yicha qabul qilingan davlat dasturi bilan uyg'un holda tayyorlansin;

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o'ttiz uch yillik bayrami (keyingi o'rinlarda — Mustaqillik bayrami) Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar markazlari va Toshkent shahrida, shuningdek, barcha shahar hamda tumanlar, qishloq va ovullarda munosib nishonlanishini ta'minlasin;

hududlarda keng aholi qatlamlari o'rtasida Mustaqillik bayramiga bag'ishlangan ma'naviy-ma'rifiy anjumanlar, uch avlod uchrashuvlarini, ochiq muloqot va suhbatlar, adabiy-badiiy kechalar, milliy kino kunlari, sayillar, madaniyat va sport tadbirlari, gastronomik festivallarni samarali o'tkazish maqsadida atoqli ilm-fan namoyandalari, madaniyat va san'at arboblari, taniqli sportchilar, keng jamoatchilik vakillaridan iborat targ'ibot guruhanini tashkil etsin hamda ularning aniq reja asosida faoliyat yuritishini ta'minlasin;

Mustaqillik bayramiga bag'ishlangan barcha tadbirlarning yuqori saviyada tashkil etilishi yuzasidan har bir hudud, vazirlik va idora rahbarlarining hisobotlarini o'z yig'ilishlarida munozam ravishda eshitib borsin.

3. Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida o'tkaziladigan asosiy bayram tadbirlarining dasturlarini tayyorlashga yuqori professional mahorat hamda tajribaga ega bo'lgan ssenariychi va rejissyorlar, shoir va adiblar, bastakor hamda baletmeysterlar, sahna rassomlari, maqom va baxshichilik san'ati vakillari, iste'dodli yosh ijrochilardan iborat ijodiy guruhlari keng jalb etilsin.

4. Joylarda Mustaqillik bayramini yuqori saviyada nishonlash maqsadida quyidagi masalalarga alohida e'tibor qaratilsin:

yurtimizda inson qadri, uning huquq va manfaatlarini yetakchi o'rinda turadigan ijtimoiy davlat va xalqparvar jamiyat qurish yo'lida amalga oshirilayotgan ishlari, mehnatkash va bag'rlik xalqimizning bunyodkorlik salohiyati bilan erishilayotgan ulkan natijalarning mazmun-mohiyati haqida mahallalar, ta'lim muassasalari, mehnat jamoalarida ma'rifiy uchrashuv va suhbatlar o'tkazish;

keyingi yillarda mamlakatimizda investitsiya va biznes muhitini tubdan yaxshilash, tadbirkorlar uchun imkoniyatlarni har tomonlama kengaytirish, "yashil" va raqamli iqtisodiyotga o'tish bo'yicha hayotga tatbiq etilayotgan yirik dastur va loyihalar

hamda bu borada qo'lga kiritilayotgan yutuqlarni aniq hayotiy misollar orqali keng yoritish;

sud-huquq tizimini isloh etish, shahar va qishloqlarimizni o'zaro qo'llab-quvvatlash maqsadida xalqimizni qo'llab-quvvatlash yo'lida doimiy sa'y-harakatlar va ularning samarasi haqidagi targ'ibot ishlari yanada kuchaytirish;

yurtimizda do'stlik va hamjihatlik muhiti tobora mustahkamlanib, mintaqamizdagi yaxshi qo'shnichilik, tinchliksevar tashqi siyosat tufayli O'zbekistonning jahon hamjamiyatidagi obro'-e'tibori yuksalib borayotgani, do'stlik va hamkorlikni saqlashga qo'llab-quvvatlash yo'lida yuqori saviyada faoliyat yuritishini ta'minlasin;

navqiron avlodga Yangi O'zbekistonning kelajagi sifatida alohida e'tibor qaratilayotgani, yoshlar bilan ishlash bo'yicha noyob tizim yaratilishi natijasida ularni zamonaviy kasb-hunarlariga o'qitish, bandedgini ta'minlash, bo'sh vaqtni mazmunli o'tkazish va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha yurtimizda shakllangan samarali va ta'sirchan tizim mohiyatini ochib berish;

sog'liqni saqlash, ilm-fan, madaniyat va san'at, sport sohalarini rivojlantirish, naroniyalar va xotin-qizlarga doimiy g'amxo'rlik ko'rsatish, oila, onalik va bolalikni himoya qilish, gender tenglik bo'yicha amalga oshirilayotgan ijtimoiy dasturlar mazmuniga alohida e'tibor qaratish;

davlatimiz mustaqilligi, uning xavfsizligi va hududiy yaxilligini ishonchli kafolati bo'lgan O'zbekiston Qurolli Kuchlarining harbiy va jangovar qudratini oshirish maqsadida amalga oshirilayotgan ishlarni keng targ'ib etish;

Mustaqillik bayrami munosabati bilan keksa avlod vakillarini, xususan, Ikkinchi jahon urushi qatnashchilari va mehnat fronti faxriylarini har tomonlama e'zozlash, "Mehribonlik", "Saxovat" va "Muruvvat" uylarida yashayotgan shaxslar, ijtimoiy himoya daftarlari qurilgan hamda ko'makka muhtoj insonlarning holidan xabar olish, ularga moddiy va ma'naviy yordam berish bilan bog'liq xayriya tadbirlarini o'tkazish;

Vatanimizning milliy istiqloqligi, xalqimiz ozodligi uchun kurashib, shu yo'lida jon fido etgan, mustabid tuzum davrida siyosiy qatag'on qurboni bo'lgan ota-bobolarimizning xotirasini yod etish bo'yicha belgilangan chora-tadbirlarni amalga oshirish.

5. Madaniyat vazirligi (O.Nazarbekov):

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi, Yozuvchilar uyushmasi bilan birgalikda bir hafta muddatda Toshkent shahrida Mustaqillik bayramiga bag'ishlab o'tkaziladigan teatrialashtirilgan konsert tomoshasining dasturi va ssenariysini ishlab chiqish hamda uni yuksak g'oyaviy-badiiy saviyada tayyorlash choralarni ko'rsin;

Badiiy akademiya, Yozuvchilar uyushmasi, Jurnalistlar uyushmasi bilan birgalikda "Ona diyor — ranglar jilosida", "Vatan uchun yashaylik!", "Eng ulug', eng aziz" kabi an'anaviy ko'rik-tanlovlarini yuqori darajada o'tkazishni ta'minlasin;

Kompozitorlar va bastakorlar uyushmasi, Yozuvchilar uyushmasi bilan birgalikda yurtimiz istiqbolini tarannum etuvchi eng yaxshi qo'shiq va musiqa asarlarini tanlovlarining yakuniy bosqichini o'tkazsin;

mazkur tanlovlarning g'olib va sovrindorlarini Mustaqillik bayrami arafasida e'lon qilish va ularni tantanalı ravishda taqdirlash choralarni ko'rsin.

6. Belgilab qo'yilsinki, o'tkaziladigan bayram tadbirlari:

Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlarda — tegishli mahalliy budjetlarning qo'shimcha manbalari hamda jismoniy va yuridik shaxslarning homiylik xayriyalari hisobidan;

Toshkent shahrida — Respublika komissiyasi tomonidan tasdiqlangan xarajatlar smetasiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi respublika budjeti va Toshkent shahar mahalliy budjeti mablag'lari hisobidan teng ushularda moliyalashtiriladi.

7. O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi, O'zbekiston Milliy axborot agentligi, "Dunyo" axborot agentligi va boshqa ommaviy axborot vositalariga Mustaqillik bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarni keng yoritib borish tavsiya etilsin.

8. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri A.N.Aripov va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi Ijtimoiy rivojlanish departamenti rahbari O.Q.Abdurahmonov zimmasiga yuklansin.

O'zbekiston Respublikasi  
Prezidenti

Toshkent shahri,  
2024-yil 18-iyul

Sh. MIRZIYOEV

### O'zbekiston Respublikasi Prezidentining QARORI TERMIZ DAVLAT MUHANDISLIK VA AGROTEKNOLOGIYALAR UNIVERSITETINI TASHKIL ETISH CHORA-TADBIRLARI TO'G'RSIDA

Oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlash tizimining uyg'unligini ta'minlash, oliy ta'lim muassasalaring mavjud resurslaridan samarali foydalanish, moddiy-texnika bazasini mustahkamlash orqali Surxondaryo viloyati iqtisodiyot tarmoqlarining, jumladan, ishlab chiqarish, muhandislik, qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar sohalari bo'yicha zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega oliy ma'lumotli mutaxassislar bo'lgan ehtiyojni qondirish maqsadida:

1. Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi, Qishloq xo'jaligi vazirligi hamda Iqtisodiyot va moliya vazirligining Termiz muhandislik-texnologiya instituti hamda Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish instituti qo'shib yuborish orqali ularning negizida Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universitetini (keyingi o'rinlarda — Universitet) tashkil etish to'g'risidagi taklifi ma'quullansin.

Belgilansinki, Universitet davlat oliy ta'lim muassasasi hisoblanadi hamda Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tizimida faoliyat yuritadi.

2. Quyidagilar Universitetning asosiy vazifalari etib belgilansin: muhandislik, qishloq xo'jaligi, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarida hamda hududning oliy ma'lumotli kadrlarga bo'lgan ehtiyojiga muvofiq oliy ma'lumotli mutaxassislar va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash;

ta'lim jarayoniga ilg'or pedagogik texnologiyalarni, ilm-fan va texnikaning so'ngi yutuqlarini hamda yetakchi xorijiy oliy ta'lim tashkilotlari tajribasi asosida ishlab chiqilgan ta'lim dasturlarini joriy etish;

ixtisoslik sohalarini bo'yicha ta'lim, ilm-fan, ishlab chiqarish o'rtasida integratsiyani kuchaytirish hamda ta'lim dasturlarining ishlab chiqarish jarayonlari bilan uzviy bog'liqligini ta'minlash;

soha tashkilotlarida talabalarning malakaviy amaliyotini va professor-o'qituvchilarning stajirovkasini tashkil etish, shuningdek, mutaxassislarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish;

amaliy va fundamental ilmiy tadqiqot ishlari hamda innovatsion loyihalarni amalga oshirish hamda tadqiqot natijalarini tijoratlashtirish;

talabalarda yuksak ma'naviy va axloqiy fazilatlarini rivojlantirish, Vatanga muhabbat, uning taqdiriga daxldorlik, kasbga sadoqat hisini mustahkamlash, ta'lim-tarbiya jarayonida ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish.

3. Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi:  
a) 2024/2025 o'quv yilidan boshlab Universitetda Ilg'or muhandislik maktabi faoliyatini tashkil etsin.

(Davomi 2-betda).

# O'ZBEKISTON VA QIRG'IZISTON KO'P QIRRALI HAMKORLIGIDA YANGI DAVR BOSHLANMOQDA

(Davomi. Boshlanishi 1-betda).

Sanoat kooperatsiyasi doirasidagi joriy loyihalar portfeli 300 million dollarga yetgani ta'kidlanadi. Kuni kecha bo'lib o'tgan biznes forumi doirasida energetika, logistika, elektrotexnika, to'qimachilik, agrosanoat va boshqa tarmoqlarda savdo shartnomalari va investitsiya bitimlarining yangi to'plami qabul qilindi.

Bunday loyihalarni ilgari surish uchun O'zbekiston – Qirg'iziston jamoasining ustav kapitali 200 million dollargacha oshiriladi.

Energetika sohasidagi hamkorlik strategik yo'nalish etib belgilandi.

Qambarota GES-1 qurilishiga doir bitimni tez fursatda imzolash va loyihaning amaliy bosqichini boshlash muhimligi qayd etildi. Shuningdek, ikki mamlakat salohiyatini hisobga olgan holda kichik gidroenergetikani rivojlantirish bo'yicha kompleks hamkorlik dasturi tayyorlandi.

Mintaqada transport bog'liqligini mustahkamlash bo'yicha birgalikdagi sa'y-harakatlarini faollashtirish zarurligi ta'kidlanadi.

Xitoy – Qirg'iziston – O'zbekiston temir yo'lini qurish bo'yicha strategik loyiha to'g'risidagi uch tomonlama bitim imzolangan bu borada tarixiy voqea bo'ldi.

Uchrashuvda istiqbolli transport loyihalari ham ko'rib chiqildi.

Ikki mamlakat hududlari savdo-iqtisodiy hamkorlikning haqiqiy drayverlari ekani ta'kidlanadi. Shu ma'noda, Bosh vazirlar raisligidagi Chegaraoloi viloiyatlar hokimlari kengashi doirasida faol aloqalar davom ettiriladi.

Hududlar delegatsiyalarining o'zaro tashriflari jadvalini tayyorlash va qo'shma "yo'l xaritalari"ni yangilashga kelishib olindi.

Qishloq xo'jaligi o'zaro hamkorlikning muhim yo'nalishidir. Qishloq xo'jaligi

ekinlarini birgalikda yetishtirish, intensiv bog'lar va agroklastlar tashkil etishni nazarda tutuvchi agrokoperatsiya dasturi amalga oshirilishi qayd etildi.

Madaniyat, yoshlar, turizm, ta'lim, fan va sport sohaslarida faol almashinuvlar davom ettiriladi.

Kelgusi yillarga mo'ljallangan madaniy tadbirlar taqvimini tayyorlashga kelishib olindi.

Yig'ilishda Bosh vazirlar o'rinbosarlarining hisobotlari va savdo-iqtisodiy hamkorlik yuzasidan aniq takliflari tinglandi.

Muzokaralar yakunida davlat rahbarlari qo'shma "Yo'l xaritasi"ni tayyorlash va erishilgan kelishuvlarni samarali amalga oshirish mexanizmlarini yo'lga qo'yish bo'yicha topshiriq berildi.

Ikki tomonlama muzokaralar yakunlangach, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Qirg'iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov yirik kooperatsiya loyihalari ishga tushirish marosimida ishtirok etdilar.

Jumladan, Farg'ona va Namangan viloyatlarida umumiy quvvati 400 megavatt bo'lgan ikkita quyosh elektr stansiyasi qurilishiga start berildi. Ushbu stansiyalarda ishlab chiqariladigan elektr energiyasi Qirg'izistonga yetkazib berilishi ko'zda tutilgan.

Chuy viloyatida zamonaviy yengil avtomobillar va tijorat texnikalari ishlab chiqarish zavodi ishga tushirildi. Xususan, u yerda "Kobalt", "Oniks" va "Treker" rusumli yengil hamda yuk avtomobillari yig'ildi.

Shuningdek, Qora-Balta shahrida tikuv-trikotaj mahsulotlari va mato ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Korxonaga zamonaviy texnologik uskunalar yetkazib berilib, o'rnatildi.

O'zbekiston va Qirg'iziston Prezidentlari ushbu loyihalar mamlakatlarimiz o'rtasidagi

o'zaro manfaatli hamkorlikni kengaytirishga xizmat qilishiga ishonch bildirdilar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Qirg'iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov o'rtasida bo'lib o'tgan samarali muzokaralar yakunida qator ikki tomonlama hujjatlar qabul qilindi.

Davlat rahbarlari keng qamrovli strategik sheriklik munosabatlarini yanada chuqurlashtirish va kengaytirish to'g'risida Qo'shma bayonotni imzoladilar.

Tashrif davomida 16 ta hujjat imzolandi, jumladan:

– Qirg'iz Respublikasining Issiqko'l viloyati hududida joylashgan kurort-hordiq xo'jaligi obyektlari bo'yicha hukumatlararo bitim;

– Fuqarolarning o'zaro kelib-ketishlari to'g'risidagi hukumatlararo bitimga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida bayonoma; – O'zbekiston Respublikasining Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lishi bo'yicha ikki tomonlama muzokaralarni yakunlash to'g'risida bayonoma;

– Qurilish faoliyati sohasidagi hamkorlik to'g'risida bayonoma;

– Mehnat, aholi bandligi va migratsiya sohasidagi hamkorlik to'g'risida bayonoma;

– Madaniyat va san'at sohasidagi hamkorlik to'g'risida bayonoma;

– Davlat xizmati sohasidagi hamkorlik to'g'risida bayonoma;

– 2024 – 2030-yillarda o'zaro savdo hajmini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar rejasi;

– 2024 – 2026-yillarda jismoniy tarbiya va sport sohasidagi hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha amaliy chora-tadbirlar rejasi;

– 2024 – 2026-yillarda qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat ta'mini sohasidagi hamkorlikni yanada rivojlantirish bo'yicha "yo'l xaritasi";

– 2024 – 2026-yillarda Toshkent va Bishkek shaharlari o'rtasidagi hamkorlikni

rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar rejasi;

– O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar instituti hamda Qirg'iz Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik tashabbuslar milliy instituti o'rtasidagi memorandum va boshqalar.

Oliy darajadagi muzokaralar yakunida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Qirg'iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarov ommaviy axborot vositalari vakillari uchun bayonot berdilar.

O'zbekiston rahbari Qirg'iziston Prezidentining davlat tashrifi tarixiy voqea bo'lgani va mamlakatlarimiz ko'p qirrali hamkorligida yangi davrni boshlab berganini ta'kidladi.

Bu galgi sammitga birgalikda jiddiy tayyorgarlik ishlari olib borilgani qayd etildi. Hukumatlararo komissiyaniy navbatdagi yig'ilishi, biznes forumi, Rektorlar forumi, Avlodlar muloqoti samarali o'tdi. Shu kunlarda mamlakatimiz hududlarida Qirg'iziston madaniyati kunlari o'tkazilmoqda.

Har doimgidek ochiq, konstruktiv va do'stona ruhdagi o'tgan bugungi muzokaralar yakunlari katta mamnuniyat bilan qayd etildi.

Kelgusida o'zaro hamkorlikni yanada yuqori bosqichga ko'tarish uchun asos bo'lib xizmat qiladigan Keng qamrovli strategik sheriklik munosabatlarini yanada chuqurlashtirish va kengaytirish to'g'risidagi qo'shma bayonot tashrifning asosiy siyosiy hujjati bo'ldi.

Prezidentlar raisligidagi Davlatlararo kengash tuzish bo'yicha kelishuvga erishildi.

Yetakchilar sanoat kooperatsiyasida, eng avvalo, ikki mamlakat iqtisodiyotining bir-biri to'ldiradigan tarmoqlarida yangi o'sish nuqtalarini yaratish masalalariga alohida to'xtaldilar. Bular energetika, avtomobilsozlik, transport va logistika, elektrotexnika,

to'qimachilik, agrosanoat va boshqa tarmoqlardagi loyihalardir.

Hududlar o'rtasidagi tizimli muloqotni kengaytirish muhimligi qayd etildi. Chegaraoloi viloiyatlar hokimlari kengashi ishini faollashtirishga kelishib olindi. O'zaro tashriflar jadvali tayyorlanib, hamkorlik bo'yicha "yo'l xaritalari" yangilanadi. Loyihalar portfelini yil yakuniga qadar 1 milliard dollarga yetkazish vazifasi qo'yildi.

Davlat rahbarlari qishloq xo'jaligi sohasida yangi imkoniyatlarni belgilab berdilar. Qishloq xo'jaligi ekinlarini birgalikda yetishtirish, fyuchers bitimlaridan foydalangan holda intensiv bog'lar va agroklastlar tashkil etish shular jumlasidan.

– Xitoy – Qirg'iziston – O'zbekiston temir yo'lini qurish strategik loiyasi bo'yicha uch tomonlama bitim imzolangan tarixiy voqea bo'ldi, – dedi mamlakatimiz yetakchisi.

Transport yo'laklarini rivojlantirish sohasidagi yangi loyihalarni o'rganish uchun ekspertlar guruhini tashkil etishga kelishib olindi.

Kichik gidroenergetika sohasida alohida hamkorlik dasturi tayyorlanishi qayd etildi.

– Qambarota GES1 qurilishi to'g'risida uch tomonlama bitim qabul qilishni tezlashtirish choralarini ko'ramiz. Ushbu megaloyiha, shubhasiz, butun mintaqamizning barqaror taraqqiyotiga xizmat qiladi, – dedi O'zbekiston Prezidenti.

Madaniyat, yoshlar, ta'lim, fan va sport sohaslarida faol muloqot va almashinuvlar davom ettiriladi.

Davlatimiz rahbari sayyohlik almashinuvi rivojlantirish imkoniyatlarini alohida qayd etdi. Ayni paytda Toshkentdan Bishkek va Tomchiga to'g'ri rida'ndan-to'g'ri aviaqatnovlar yo'lga qo'yilgan.

Tashrif davomida O'zbekistonning Issiqko'l'dagi sanatori-y kurort majmualari to'g'risida bitim imzolandi. Iyul oyi boshida O'zbekiston tomonidan uchta obyekt ishga tushirdi, ular mehmonlarni qabul qilmoqda. Turizm infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha yangi loyihalar ishlab chiqilmoqda.

Mamlakatimiz yetakchisi so'zining yakunida muzokaralar natijalaridan mamnunligini izhor etdi hamda Qirg'iziston Prezidentining O'zbekistonga tarixiy tashrifi samaralari hamkorlikni aniq mazmun bilan boyitishga, o'zaro do'stlik, yaxshi qo'shnichilik va strategik sheriklik munosabatlarini mustahkamlashga xizmat qilishiga ishonch bildirdi.

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Qirg'iziston Prezidenti Sadir Japarov rafiqalari bilan birga O'zbekistonda Qirg'iziston madaniyati kunlari boshlanishiga bag'ishlangan konsertda ishtirok etdilar.

Ikki mamlakat san'at ustalarning ushbu konserti chuqur tarixiy ilidlar bilan bog'langan, dini bir, qadriyat va analari mustarak o'zbek va qirg'iz xalqlarining ko'p asrik do'stligi ifodasi bo'ldi.

O'zbekiston va Qirg'iziston yetakchilarining irodasi va sa'y-harakatlari tufayli qarodosh xalqlar yanada yaqinlashdi, davlatlararo munosabatlar esa keng qamrovli strategik sheriklik darajasiga ko'tarildi.

Iste'dodli san'atkorlar ijro etgan kuy-qo'shiqlarda xalqlarimiz madaniyatining boyligi, o'ziga xosligi va shu bilan birga mustarakligi o'z ifodasini topdi.

Qirg'iz Respublikasi Prezidenti Sadir Japarovning mamlakatimizga davlat tashrifi davom etmoqda.

Ziyodulla JONIBEKOV,  
Ikrom AVVALBOYEV,  
O'ZA muxbirlari.

## O'zbekiston Respublikasi Prezidentining QARORI

# TERMIZ DAVLAT MUHANDISLIK VA AGROTEKNOLOGIYALAR UNIVERSITETINI TASHKIL ETISH CHORA-TADBIRLARI TO'G'RISIDA

(Davomi. Boshlanishi 1-betda).

Bunda:

Ilg'or muhandislik maktabi yuridik shaxs maqomisiz tashkil etiladi hamda unda ta'lim olish uchun akademik ko'rsatkichlari yuqori bo'lgan talabalar tanlov asosida saralanadi va **amaliyotga yo'naltirilgan maxsus ta'lim dasturlari asosida o'qitiladi**;

Ilg'or muhandislik maktabida sanoat hamkorlari belgilanib, ularning texnik va texnologik taraqqiyotini ta'minlash uchun zamonaviy **laboratoriyalar tashkil etiladi**;

Ilg'or muhandislik maktabida amalda hamkorlari tomonidan taqdim etilgan muammolar portfeli asosidagi **ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlarini olib borish yo'lga qo'yiladi**;

Ilg'or muhandislik maktabida amalga oshiriladigan amaliy va innovatsion loyihalarni sanoat hamkorlari va Innovatsion rivojlanish agentligi mablag'lari hisobidan birgalikda moliyalashtirish tizimi joriy etiladi;

Ilg'or muhandislik maktabi faoliyati Universitetning budgetdan tashqari mablag'lari hamda qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalardan moliyalashtiriladi;

b) Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda Surxondaryo viloyati hokimligi bilan birgalikda:

yirik ishlab chiqarish korxonalarini Universitetning **Ilg'or muhandislik maktabiga sanoat hamkori sifatida birlashtirish** hamda samarali faoliyatni tizimli davom ettirish;

yetakchi xorijiy oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot tashkilotlarida faoliyat yurituvchi **chet ellik va (yoki) xorijda yashovchi vatandosh mutaxassislarni shartnoma asosida** ilg'or muhandislik maktabi faoliyatiga jalb etish choralarini ko'rsin.

4. Quyidagilar:

2024-2027-yillarda Termiz davlat muhandislik va agroteknologiyalar universiteti faoliyatini tashkil etish hamda uning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash bo'yicha **"yo'l xaritasi"** 1-ilovaga muvofiq;

Termiz davlat muhandislik va agroteknologiyalar universiteti hamda Termiz davlat pedagogika institutiga operativ boshqaruv huquqi asosida bepul **beriladigan obyektlar ro'yxati** 2-ilovaga muvofiq tasdiqlasin.

5. Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi:

a) **2024/2025 o'quv yiliga qadar:**

Universitet boshqaruv kadrlari lavozimlariga yetakchi xorijiy oliy ta'lim tashkilotlarida ish tajribasiga ega bo'lgan mutaxassislarning jalb etilishini;

Universitetning tanlov asosida ishlab chiqarish tashkilotlari, oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarida katta ilmiy va (yoki) amaliy tajriba oltirgan mutaxassislar, ustuvor ravishda, ilmiy darajaga ega bo'lgan yuqori malakali kadrlar bilan to'ldirilishini;

Universitet talabalarining fanlari o'zlashtirish ko'rsatkichini va professor-o'qituvchilarning ish samarasini **xalqaro standartlar asosida baholash tizimining** joriy etilishini;

Universitetda Ta'lim xizmatlari markazi tashkil etilishini hamda talabalarga o'qish davomida vujudga keladigan tashkiliy va huquqiy masalalar yuzasidan barcha zarur xizmatlarning "yagona darcha" tamoyili asosida ko'rsatilishi yo'lga qo'yilishini ta'minlash;

b) Universitet huzurida texnika va qishloq xo'jaligi ixtisosliklari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini beruvchi ixtisoslashgan ilmiy kengashlar faoliyatini belgilangan tartibda tashkil etish choralarini ko'rsin;

v) **2025/2026 o'quv yilidan boshlab:**

Universitet professor-o'qituvchilari va doktorantlarini xorijiy davlatlarning yetakchi oliy ta'lim va ilmiy-tadqiqot tashkilotlariga **ilmiy stajirovka va malaka oshirishga** yuborish;

Universitetning bakalavriyat va magistratura bosqichlariga o'qishga qabul qilingan iqtidorli talabalar uchun **xorijiy tillarda o'qitiladigan alohida guruhlari** tashkil etish choralarini ko'rsin.

6. Universitetga quyidagi huquqlar berilsin:

xalqaro e'tirof etilgan tashkilotlarning amaldagi reytingida oliy ta'lim muassasalari orasida **birinchi 300 talik ro'yxatga kirgan xorijiy oliy ta'lim tashkilotining dasturi asosida o'z ta'lim dasturlarini shakllantirish**;

Universitet faoliyati yo'nalishlari bo'yicha shartnoma asosida **maslahat va ekspert-tahliliy xizmatlar ko'rsatish** hamda ilmiy-tadqiqot va innovatsion xizmat ko'rsatuvchi korxonalarini tashkil etish;

ta'lim va ilmiy-tadqiqot jarayoniga **xorijiy mutaxassislarni jalb qilish** hamda ularga mehnat bozoriing amaldagi konyunkturasini hisobga olgan holda, Universitetning budgetdan tashqari mablag'lari hisobidan oylik maosh hamda boshqa to'lovlarni belgilash va to'lash;

professor-o'qituvchilarni o'quv-metodik, ilmiy-tadqiqot ishlari va

"ustoz-shogird" tizimi bo'yicha bajargan ishlarining natijasi hamda talabalarining erishgan yutuqlari bo'yicha rag'batlantirib borish.

7. Belgilab qo'yilsinki:

a) Termiz muhandislik-texnologiya instituti hamda Termiz agroteknologiyalar va innovatsion rivojlanish institutida tahsil olayotgan barcha talabalar o'qishini Universitetda davom ettiradi hamda 2024/2025 o'quv yilidan boshlab bitiruvchi kurs talabalariga belgilangan tartibda Universitet diplomini beriladi;

b) Universitet Termiz muhandislik-texnologiya instituti hamda Termiz agroteknologiyalar va innovatsion rivojlanish institutining huquq va majburiyatlari bo'yicha huquqiy vorisi hisoblanadi;

v) Universitet faoliyatini moliyalashtirish:

Davlat budgeti mablag'lari, to'lov-kontrakt asosida o'qitishdan tushadigan mablag'lari, xo'jalik faoliyati va shartnoma asosida xizmatlar ko'rsatishdan tushadigan tushumlar, homiylik xayriyalari va grantlar hamda qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalardan hisobidan amalga oshiriladi;

2024-yilda O'zbekiston Respublikasining respublika budgetidan birinchi darajali budget mablag'larini taqsimlovchi sifatida Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda Qishloq xo'jaligi vazirligiga ajratilgan mablag'lar doirasida tasdiqlangan budget parametrlariga tegishli o'zgartirish kiritgan holda amalga oshiriladi, 2025-yildan boshlab Davlat budgeti parametrlarida nazarda tutiladi.

8. Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi ikki oy muddatda qonunchilik hujjatlariga ushbu qarordan kelib chiqadigan o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritilsin.

9. Mazkur qarorning ijrosini samarali tashkil qilishga mas'ul va shaxsiy javobgar etib oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri K.A.Sharipov hamda Surxondaryo viloyati hokimi U.B.Qosimov belgilansin.

Qaror ijrosini nazorat qilish O'zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A.N.Aripov va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi Ijtimoiy rivojlanish departamenti rahbari O.Q.Abduraxmanov zimmasiga yuklansin.

### O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

Toshkent shahri,  
2024-yil 18-iyul

### Sh. MIRZIYOEY

## BIZNESDA AYOLLAR ULUSHINI OSHIRISH – MUHIM VAZIFA

Poytaxtimizda Oliy Majlis Senati va Savdo-sanoat palatasi tomonidan "Men muvaffaqiyatli tadbirkor ayolman" tadbirkor ayollar forumi o'tkazildi.

### Forum

Yurtimizda ayollar tadbirkorligini yangi bosqichga ko'tarish hamda biznes vakillarini qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan bu tadbirida Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva, Savdo-sanoat palatasi raisi Davron Vahobov, tegishli vazirlik va idoralar rahbarlari hamda yurtimiz hududlarida faoliyat olib borayotgan 200 nafardan ortiq yetakchi tadbirkor ayollar ishtirok etdi.

Senat Raisi o'z so'zida tadbirkorlikka endi qadam qo'yayotgan ayollarni qo'llab-

quvvatlash, moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirish, ishbilarmonlik ko'nikmalarini oshirish maqsadida ularni doimiy tarzda o'qitib borish, yuqori texnologiyali kasblarga o'rgatish kerakligini alohida ta'kidladi. Ayni chog'da yangi ishlanmalarga asoslangan startap loyihalarni qo'llash, o'zaro hamkorlik va tajriba almashish uchun muloqot maydoni tashkil etish, xalqaro tuzilmalar bilan hamkorlikdagi loyihalarni kengaytirish masalalariga ham e'tibor qaratladi.

Forum doirasida tadbirkorlikda muvaffaqiyatga erishgan ayollar o'z tajribasi bilan o'rtoqlashdi.

Ma'lumot o'rinda ta'kidlash joizki, bugun yurtimizda ishbilarmon ayollar safi ikki barobar kengayib, o'z biznesini yo'lga qo'yg'an xotin-qizlar soni 200 mingdan oshdi, iqtisodiyot va sanoat tarmoqlaridagi ulushi 46 foizni tashkil etmoqda. Qolaversa, kichik biznes subyektlarining 120 mingdan ko'prog'i va fermer xo'jaliklarining 4,5 mingdan ortig'ini opa-singillarimiz boshqarib kelmokda.

Tadbirida qayd etilganidek, Prezidentimizning tegishli Farmoni bilan joriy yildan boshlab ayollar kichik biznes va xususiy tadbirkorligini tashkil etish uchun 100 million dollar ajratila boshlandi.

Bu orqali kelgusi ikki yilda kichik va o'rta biznesda xotin-qizlarning ulushini hozirgi 25 foizdan 40 foizga yetkazish niyat qilingan.

Ayni shu maqsadda bugungi kunda mamlakatimizda xotin-qizlarning biznes sohasidagi loyihalari qo'llab-quvvatlash va muammolarini bartaraf etish uchun joylarda ularni tadbirkorlikka o'qitish va soha bo'yicha ko'nikmalarini shakllantirish hamda faoliyat boshlashi uchun kredit olishda amaliy yordam ko'rsatishning yangi tizimi joriy etildi.

Forumda ta'kidlanganidek, yaqin-yaqingacha ayollar tadbirkorlikning ayrim sohaslarida, xususan, xizmatlar va qisman to'qimachilik yo'nalishida faol ish olib borgan bo'lsa, bugungacha kelib

biznesning har bir tarmog'iga shiddat bilan kirib kelmokda. Asosiyi, ular barcha yo'nalishda salmoqli natijalarni qo'lga kiritishayotir.

Tadbir davomida biznesda ayollar ishtirokini kengaytirish yuzasidan fikr-mulohaza va takliflar bildirildi.

Shuningdek, xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirish bo'yicha maxsus dastur ishlab chiqish hamda mahalliy tadbirkor ayollarning xalqaro hamkorlik aloqalarini yanada kengaytirishga kelishib olindi.

Forum yakunida ishtirokchilarning muhim sanalangan yo'nalishlardagi aniq takliflarini o'z ichiga olgan Murojaat qabul qilindi.

"Xalq so'zi".

# PARLAMENT SHAFFOFLIGI, JAMIYAT TARAQQIYOTIGA DAXLDORLIGI – ASOSIY MAQSAD

## Zamonaviy yondashuv va mutlaqo yangi tamoyillar ro'yobi

Bugungi kunda xalqimiz saylagan oliy davlat vakillik organi – parlament mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotida tobora mustahkam o'rin tutib, davlatimiz rahbari tomonidan amalga oshirilayotgan hayotiy islohotlarning asosiy ijrosiga aylanmoqda. Albatta, bunda qonun chiqaruvchi hokimiyat faoliyatiga zamonaviy yondashuv va mutlaqo yangi tamoyillarning tatbiq qilinayotganiga dolzarb ahamiyat kasb etayotir. Natijada Oliy Majlisning shaffoqligi va uning xalq oldidagi hisobdorligi oshirildi, fuqarolar murojaatlariga munosabat bildirishning ta'sirchan mexanizmi o'rnatildi, odamlarni bezovta qilayotgan masalalarga yanada ko'proq e'tibor qaratilishi ta'minlandi.

Ahamiyatli jihati, aholi manfaatlarini ta'minlash, huquq va erkinliklarini muhofaza qilish, ularni o'yantirib kelayotgan muammolarni chuqur tahlil qilish, eng muhimi, buni ishlab chiqilayotgan qonunlarda aks ettirish deputatlar korpusi ishida ustuvorlikka ega bo'ldi. Bu har bir fuqaroning jamiyat taraqqiyotiga daxldorligi yuksalib borayotgani, qabul qilinayotgan qonunlar ularning hayotiga o'zgarishlar olib kirishiga ishonchi mustahkamlanayotganidan dalolat beradi. Shu o'rinda quyi palataning yarim yillik faoliyatini tahlil qiladigan bo'lsak, o'tgan vaqtda qonunchilik jarayonida faol islohotlar, o'zgarishlar amalga oshirilganini qayd etish joiz. Yangi tahrirdagi Konstitutsiya, bir qator Konstitutsiyaviy qonunlar, "O'zbekiston – 2030" strategiyasi, "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili" Davlat dasturi asosida quyi palatada tashkil etilgan ishlarda, eng avvalo, inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni va qadr-qimmatini kafolatlashga ustuvor masala sifatida e'tibor berildi. Bu esa Asosiy Qonunimizda belgilangan normalarni izchil ro'yobga chiqarishda muhim ahamiyat kasb etadi.

## Qonun ijodkorligi faoliyatida mas'ullik va natijadorlik

Qonun ijodkorligi – parlament faoliyatining eng muhim, birinchi galdagi vazifasidir. Hisobot davrida quyi palataning ushbu yo'nalishi mamlakatimiz Prezidenti boshchiligidagi amalga oshirilayotgan keng ko'lami islohotlarning huquqiy asoslarini mustahkamlashga qaratildi. O'tgan davrda Qonunchilik palatasida ko'rib chiqilgan qonun loyihalarining soni va hajmi sezilarli darajada oshdi. Xususan, 110 ta qonun loyihasi hamda Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (ombudsman) tomonidan yangi tahrirdagi Konstitutsiya normalari asosida ilk bor qonunchilikka ta'kid kiritish institutidan foydalanilib, Qonunchilik palatasiga Soliq kodeksiga qo'shimcha kiritish bo'yicha taklifi ko'rib chiqildi.

Palata tomonidan 64 ta qonun loyihasini o'z ichiga olgan jami 48 ta qonun qabul qilinib, ma'qullash uchun Senatga yuborildi. Deputatlarning qonun ijodkorligi faoliyati ham sezilarli darajada jonlanib, ular tomonidan qonunchilik tashabbusi huquqidan samarali foydalanildi. Xususan, 2023-yilning birinchi yarim yilligida deputatlar tashabbusi bilan 6 ta qonun loyihasi kiritilgan bo'lsa, joriy yilning mos davrida ular tomonidan 16 ta qonun loyihasi Qonunchilik palatasiga kiritildi.

Qonunlarning sifatli, xalqchil bo'lishi va jamoatchilikning qonun ijodkorligidagi faol ishtirokini ta'minlash maqsadida deputatlarining saylov okruglaridagi uchrashuvlari davomida qator qonun loyihalari yuzasidan jamoatchilik muhokamalarini o'tkazildi. Qator qonun loyihalari Qonunchilik palatasining rasmiy veb-saytiga (parliament.gov.uz) ham jamoatchilik muhokamasi uchun joylashtirib borildi.

"Qonunning birdan-bir manbai va muallifi tom ma'noda xalq bo'lishi shart" degan ustuvor tamoyildan kelib chiqib, mazkur jamoatchilik muhokamalarida davomida fuqarolarning qonun loyihalari yuzasidan fikr-mulohaza va takliflari olindi hamda ular asosida loyihalar maromiga yetkazildi. Chunoschi, qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlarni ikkilamchi ijaraga berish va ulardan samarali foydalanishga qaratilgan qonun loyihasidagi dala chetlarida hamda kollektor-drenaj va sug'orish tarmoqlarining atroflaridagi yer maydonlarida, bog' va tokzor qator oralarda maqbul ekinlar ekish yer egalari, yerdan foydalanuvchilar, ijarachilar, shu jumladan, fermer xo'jaliklari uchun majburiyat sifatida belgilangan norma "ixtiroiy norma"ga almashtirildi.

Palata tomonidan davlat va jamiyat hayotida muhim ahamiyatga ega bo'lgan

qator qonunlarning qabul qilingani xalqimiz farovonligini oshirish, aholiga yengilliklar yaratish, fuqarolar huquq va erkinliklarini ta'minlashda muhim huquqiy asos bo'ldi. Jumladan, "O'zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalariga hamda ularda qurilgan binolar va inshootlarga bo'lgan huquqlarni e'tirof etish to'g'risida"gi Qonun bilan yer uchastkasi va unda qurilgan bino va inshootga bo'lgan huquqni, shuningdek, yakka tartibdagi uy-joy qurgan holda o'zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkasiga ijaraga huquqini e'tirof etishning aniq tartibi belgilandi.

"O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirishlar va qo'shimcha kiritish to'g'risida"gi Qonun bilan hech kim sudning qarorisiz va qonunga zid tarzda uy-joyidan mahrum etilishi mumkin emasligi, uy-joyidan mahrum etilgan muhokarda uy-joyning qiymati va u ko'rgan zararlarning o'ri oldindan hamda teng qiymatda qoplanishi belgilab qo'yildi.



"O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga kredit majburiyatlarini bajarish tartibini takomillashtirish hamda aholining mikroto'ldiruvchi tarmoqlarda foydalanish imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan o'zgartirishlar va qo'shimcha kiritish to'g'risida"gi Qonun bilan fuqarolarga bir qator yengilliklar taqdim etildi. Jumladan, unda to'lov summasi qarzu oluvchi jismoniy shaxsga yoki qarzu oluvchi tadbirkorlik subyektiga ajratilgan mikroqarzu yoki kredit bo'yicha majburiyatlarini bajarish uchun yetarli bo'lmagan taqdirda, birinchi navbatda, asosiy qarzni uzilishini, shuningdek, ajratilgan kreditlar bo'yicha qarzdorlikni undirish to'g'risida sudning hal qiluv qarori chiqarilganda, foizlar va neustoykani hisoblash to'xtatilishi belgilandi.

Bundan anglashiladiki, xalqimiz farovonligini yuksaltirish, tadbirkorlikni rivojlantirish, aholining ijtimoiy himoyasini kuchaytirish, odamlarning kundalik hayotini yaxshilash, fuqarolarning qonuniy huquq va manfaatlarini ishonchli himoya qilishning huquqiy asoslarini yanada mustahkamlashga ustuvor ahamiyat qaratilgani yuqoridagi kabi ijobiy natijalarni ko'rsatmoqda.

## Ta'sirchan parlament nazorati

Sir emaksi, o'tgan vaqt mobaynida parlament nazorati davlat hokimiyati hamda boshqaruvi organlarining o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalarni bajarishi yuzasidan javobgarligini oshiruvchi eng muhim institut sifatida amaliyotga tatbiq etildi va ayni paytda uning ta'sirchan shakllardan keng foydalanilmoqda. Hisobot davrida deputatlar korpusi tomonidan davlat va jamiyat hayotining muhim sohalarini nazorat qilish, xususan, Davlat budgeti, Davlat dasturi ijrosini ko'rib chiqish, Hukumat a'zolari, davlat organlari rahbarlarining hisobotlarini eshitish, qonunlarning joriy davrida ijrosi holatini nazorat-tahlil tartibida o'rganib borishga ustuvor ahamiyat qaratildi.

Shuningdek, Prezidentimiz raisligida muhim sohalarda bo'yicha joriy yilda o'tkazilgan videoselektor yig'ilishlarida hamda hududlarga tashriflari davomida mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari doirasida belgilab berilgan vazifalarning ijrosi ustidan ta'sirchan nazorat o'rnatildi. Qonunchilik palatasining parlament nazorati faoliyati jonlanganini raqam va ko'rsatkichlar orqali ham bilish mumkin. Jumladan, quyi palata majlislarida davlat organlari rahbarlarining o'z faoliyatiga doir masalalar yuzasidan 17 marotaba axboroti ("parlament eshituvi") eshitildi. Parlament nazoratining mazkur muhim instituti jamiyat hayotidagi dolzarb muammo va kamchiliklarni o'z vaqtida aniqlab, ijro hokimiyati e'tiborini qaratish orqali ularni samarali hal etish imkonini bermoqda.

Bugungi kunda mamlakatimizning bosh moliyaviy hujjati – Davlat budgetining samarali bajarilishini ta'minlash, budget mablag'larining maqsadli sarflanishi,

joriy yilgi Davlat dasturining hamda "O'zbekiston – 2030" strategiyasining bajarilishi ustidan ta'sirchan nazorat o'rnatishda parlamentning roli tobora ortib bormoqda. Bu 5-mart va 3-iyun kuni quyi palata majlislarida Vazirlar Mahkamasining ushbu yo'nalishlardagi hisobotlarini ko'rib chiqish jarayonida yaqqol namoyon bo'ldi.

Xalq vakillari muhokamalar jarayonida budget mablag'larini hisobiga ijtimoiy sohani rivojlantirish, ijtimoiy infratuzilma obyektlarini qurish va ta'mirlash, ta'lim, sog'liqni saqlash, ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish kabi muhim soha va tarmoqlarga ajratilayotgan mablag'larning o'z vaqtida va maqsadli sarflanishini ta'minlash masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Davlat organlarining mansabdor shaxslariga qonunlarning, turli sohalaridagi davlat dasturlarining ijrosi hamda boshqa muhim masalalar yuzasidan asoslantirilgan tushuntirish berish yoki nuqtayi nazarini

bayon etish talabi bilan 8 ta parlament so'rovi jo'natildi.

Ushbu parlament so'rovlarida global transport-logistika tarmoqlariga O'zbekistonning integratsiyasini chuqurlashtirish, ichimlik suvi ta'minotini yaxshilash, maktabgacha ta'lim sohasida davlat-xususiy sheriklikni qo'llab-quvvatlash, xavfsiz, tartibli va qonuniy mehnat migratsiyasi tizimini joriy etish, umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida bolalarga tibbiy xizmat ko'rsatish sifatini oshirish,



tashabbusli budget asosida shakllantirilgan loyihalarni moliyalashtirishni kengaytirish borasidagi qator masalalar ko'tarildi.

Shu o'rinda qayd etish joizki, parlament faoliyati tarixida ilk bor 2018-yilda Qonunchilik palatasi majlislarida Hukumat a'zolarining deputatlar savollariga javoblarini eshitish – "Hukumat soati" instituti kiritilgandi. O'tgan davrda mazkur institut imkoniyatlaridan samarali foydalanildi, desak, muvoblag' bo'lmaydi. Xususan, siyosiy partiyalar fraksiyalarining taklifi bilan 4 marotaba "Hukumat soati" o'tkazilib, ularda tog'-kon sanoati va geologiya, raqamli texnologiyalar, madaniyat hamda oliy ta'lim, fan va

innovatsiyalar vazirlari saylovchilar tomonidan ko'tarilgan dolzarb masalalar yuzasidan deputatlar savollariga javob berdi.

Deputatlarning joylarda o'tkazgan o'rganishlari, saylov okruglarida o'z saylovchilari bilan uchrashuvlari davomida hamda fuqarolarning murojaatlarida ko'tarilgan dolzarb muammolarni hal etish uchun mansabdor shaxslarga jami 90 ta deputat so'rovi yuborildi.

Umuman olganda, parlament nazorati tadbirlari davomida tegishli sohani rivojlantirish, mavjud kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan takliflar ishlab chiqib, mansabdor shaxslar ishiga tanqidiy baho berishga alohida e'tibor qaratildi. Bu esa Hukumat a'zolarining, mansabdor shaxslarning mas'uliyatini kuchaytirib, faoliyati samaradorligini yanada oshirishga, pirovardida, fuqarolarning davlat organlari faoliyatining roziligini ta'minlashga, xalqimiz farovonligini yuksaltirishga yordam bermoqda.

## Saylovchilar ko'tarayotgan masalalar – deputatlar e'tiborida

Aholi bilan yaqindan muloqot qilish, saylovchilarni qiyab kelayotgan masalalarni hal etish deputatlarining saylov okruglaridagi faoliyatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Avvallari deputatlar bir yilda uch-to'rt marta uchrashuvlarga chiqqan bo'lsa, endilikda har oyning oxirgi haftasini deputatlar saylov okruglarida o'tkazishlari belgilandi. Bu orqali xalq vakillari o'z saylovchilarining ehtiyojlari, muammolari va saylov okrugidagi haqiqiy vaziyat to'g'risida axborot olishini ta'minlovchi tizim shakllandi.

Binobarin, Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi doirasida amalga oshirilayotgan islohotlarning borishini o'rganish, Qonunchilik palatasining qonun ijodkorligi va nazorat-tahlil faoliyati, fraksiyalar faoliyati haqida aholiga axborot yetkazish, amaldagi qonunchilikning yutuq va kamchiliklarini aniqlashda deputatlarining saylovchilar bilan joylardagi uchrashuvlari muhim ahamiyat kasb etadi.

Saylov okruglaridagi faoliyati davomida deputatlar tomonidan mahalliy Kengashlardagi partiya guruhlariga amaliy yordam ko'rsatildi, ular faoliyatini samarali tashkil qilishga ko'maklashildi, ushbu jarayonlarga bevosita mahalliy Kengash deputatlari ham jalb etildi.

Deputatlar o'z hududidagi Prezident Xalq qabulxonalarini bilan doimiy aloqa o'rnatgan. Parlamentariylar tomonidan saylov okruglaridagi faoliyati davomida Xalq qabulxonalarini bilan hamkorlikda fuqarolarning qabullari ham tashkil qilindi. Ularda 7 939 nafar fuqaro qatnashdi.

Umuman aytganda, saylov okruglarida olib borilgan ishlar davomida deputatlar

tomonidan jami 7 365 ta obyektga, shu jumladan, 2 450 ta xonadonga tashrif buyurilib, 2 513 ta uchrashuv o'tkazildi. Ularda 54 mingdan ziyod fuqarolar, shu jumladan, 4 385 nafar tadbirkor bilan bevosita uchrashuv va muloqotlar tashkil etildi hamda 1 554 ta ijtimoiy soha obyektining faoliyati bilan tanishildi.

Muloqotlar chog'ida saylovchilar tomonidan jami 4 841 ta masala ko'tarildi. Xalq noiblari tomonidan amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida ulardan 477 tasi (9,9 foiz) joyida hal etildi. Aholini tashvishlantirayotgan, joyida yechilmagan,

hamkorlik guruhlarning yig'ilishlari tashkil etildi.

Aytish joizki, quyi palatada xorijiy davlatlar va nufuzli xalqaro tashkilotlar delegatsiyalari bilan qator uchrashuvlar o'tkazishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu, o'z navbatida, parlamentimizning mamlakatimiz tashqi siyosatiga doir muhim masalalarni hal etishdagi ishtirokini faollashtirish va kengaytirishda, parlamentlararo aloqalarni yanada chuqurlashtirishda muhim omil bo'layotir. Xususan, hisobot davrida 6 ta xorijiy davlat parlamentlari rahbarlari (*Gruziya, Singapur,*



tuman va shahar darajasidagi 3 166 ta (65,4 foiz) hamda viloyat darajasidagi 1 044 ta (21,6 foiz) masalani mahalliy ijro hokimiyati bilan birgalikda hal etish choralari belgilab olindi. Vaqt, moliyaviy mablag' talab qiladigan, xususan, respublika darajasida aniqlangan 154 ta (3,2 foiz) masala esa nazoratga olindi.

Deputatlarning saylov okruglaridagi faoliyati saylovchilar bilan yaqin aloqalar muntazamligini ta'minlash, aholi va saylovchilarni o'yantirayotgan, jamiyat oldida turgan muammo va kamchiliklarni o'z vaqtida aniqlash hamda ularni bartaraf etish imkonini bermoqda. Shuningdek, bu aholining kayfiyatini, islohotlarga nisbatan munosabatini yaqindan o'rganishga hamda ularni mamlakat hayotiga daxldor masalalar yuzasidan muhim qarorlarni qabul qilish jarayonida muhim ahamiyat kasb etyapti.

## Mustahkamlanib borayotgan xalqaro aloqalar

Mamlakatimizda pragmatik va chuqur o'ylangan tashqi siyosat yuritish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnichilik va strategik sheriklik munosabatlarini jadal rivojlantirish, tashqi aloqalar geografiasini yanada kengaytirish masalalariga ustuvor ahamiyat qaratilayotgani natijasida nafaqat yaqin qo'shnilarimiz, balki iqtisodiy jihatdan yetakchi davlatlar bilan ham teng manfaatli hamkorlik yuqori pog'onaga ko'tarilmoqda.

Mazkur jarayonda Qonunchilik palatasi faoliyatining eng muhim yo'nalishlaridan biri bo'lgan xorijiy davlatlar parlamentlari va xalqaro tashkilotlar bilan ko'p qirrali va samarali hamkorlik aloqalarini izchil davom ettirilib, deputatlar korpusining mamlakatimizning xalqaro maydondagi o'rni va nufuzini yanada oshirish, parlamentlararo munosabatlarni yangi bosqichga olib chiqish borasidagi ishlar yanada jonlanmoqda.

Hisobot davrida xorijiy parlamentlar va xalqaro tashkilotlar bilan o'zaro delegatsiyalar almashinuvlari amalga oshirildi, chet ellik parlamentariylar, xalqaro tashkilotlar vakillari, elchilar va boshqa diplomatik korpus vakillari bilan uchrashuvlar o'tkazildi, parlamentlararo

Tojikiston, Turkiya, Misr va Malayziya) bilan o'tkazilgan uchrashuvlar parlamentlararo aloqalarni yanada rivojlantirish va mustahkamlash imkonini berdi.

Qayd etish kerak, bugungi kunda Qonunchilik palatasining xorijiy davlatlarning qonun chiqaruvchi organlari bilan aloqalarini yanada rivojlantirishda parlamentlararo hamkorlik guruhlari ochiq, konstruktiv va jonli muloqot olib borish uchun o'ziga xos institutga aylandi.

Mazkur parlamentlararo tuzilmalarning samarali faoliyat yuritishi mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko'lami islohotlar to'g'risida jahon hamjamiyatiga xolis axborot yetkazish, o'zaro hamkorlikni yanada jadallashtirish, O'zbekistonga chet el investitsiyalarini keng jalb etish uchun yaqin aloqalarni o'rnatishga xizmat qilmoqda. Xususan, hozirgi kunda Oliy Majlisda jami 57 ta xorijiy davlat parlamenti hamda Yevropa Ittifoqi parlamenti bilan parlamentlararo guruhlar faoliyat yuritilmoqda.

Qonunchilik palatasining xalqaro tashkilotlar va parlamentlararo tuzilmalar bilan hamkorligini yanada faollashtirish mamlakatimizning xalqaro maydondagi o'rni va nufuzi yanada ortishida, olib borilayotgan demokratik islohotlarning mazmun-mohiyatini dunyo hamjamiyatiga yetkazishda muhim o'rinda ega.

Hisobot davrida deputatlar Parlamentlararo Ittifoq, Turkiya davlatlar Parlament Assemblyasi, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi Parlamentlararo Assambleyasi hamda Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti Parlament Assambleyasi kabi nufuzli parlamentlararo tashkilotlar tomonidan o'tkazilgan tadbirlarda faol ishtirok etdi.

Umuman olganda, o'tkazilgan xalqaro tadbirlar, uchrashuvlar va amaliy muloqotlar mamlakatimizning chet el davlatlari bilan o'zaro munosabatlarni mustahkamlash hamda parlamentlararo hamkorlik aloqalarini yanada kengaytirishda muhim vositalardan biri bo'lib xizmat qiladi. Bu, o'z navbatida, xorijiy davlatlar parlamentlari bilan o'zaro hamkorlik aloqalarini yanada faollashtirishda muhim omil bo'ldi.

Muxtasar aytganda, Qonunchilik palatasining 2024-yil birinchi yarim yillikdagi faoliyat davlatimiz rahbari tomonidan belgilab berilgan ustuvor yo'nalishlar va maqsadlarni ro'yobga chiqarish, amalga oshirilayotgan ichkil islohotlarni huquqiy jihatdan ta'minlash, barcha soha va tarmoqlarni rivojlantirish borasidagi ishlar ustidan ta'sirchan parlament nazoratini olib borish, qonun hujjatlarining ijro etilishi holatini, huquqni qo'lash amaliyotini o'rganishga qaratilgan bilim ahamiyatli bo'ldi.

Ushbu faoliyat ikkinchi yarim yillikda yanada izchil davom ettirilib, bunda deputatlar korpusining yanada faol, tashabbuskor bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Zero, fuqarolar manfaatlarini ifodalovchi, tom ma'noda, haqiqiy demokratik organ sifatida shakllangan, mamlakatda amalga oshirilayotgan ulkan va keng ko'lami islohotlarga jalb etilgan parlament keyingi faoliyatida ham xalqimiz farovonligi, yangi O'zbekiston taraqqiyoti, uni dunyodagi rivojlangan demokratik davlatlar qatoriga ko'tarishda faol ishtirokchi bo'ladi.

"Xalq so'zi".

# MARDI MAYDON ELLARIM BORDIR

*Davlatimiz rahbarining "Atoqli qoraqalpoq shoiri va mutafakkiri Ajiniyoz Qo'siboy o'g'li tavalludining 200-yiliga keng nishonlash to'g'risida"gi qarori yangi O'zbekistonimiz ma'naviy-ijtimoiy va adabiy-madaniy hayotida tom ma'noda tarixiy voqea bo'ldi.*

*Alg'ov-dalg'ov bo'lib yotgan bugungi notinch dunyoda, tashvishu tahlikasi ortib borayotgan ro'yi zaminda, albatta, milliy va umumbashariy qadriyatlar sirasiga kiruvchi, yuksak insoniy g'oyalarni tarannum etgan bobokalonlarimizning adabiy merosini o'rganish va targ'ib qilish bag'oyat muhim va ezgu ishdur. O'z ijodi bilan faqat odamiylikni, tinchlik va omonlikni, ellar, elatlarning do'stligi va og'izburchiligini tarannum etgan hazrat Ajiniyozning ibratli hayoti hamda faoliyati yuksak e'tibor va tahsinga sazovordir.*



## Ajiniyoz tavalludining 200-yiliga

Oliy maqom hujjatda alohida urg'u berilganiday Ajiniyoz: "o'zining betakror va sermazmun ijodi bilan xalqimiz madaniyati va adabiyotini rivojlantirish, yosh avlodni vatanparvarlik va ezgu g'oyalar ruhida tarbiyalash, o'zbek va qoraqalpoq xalqlari o'rtasidagi azaliy do'stlik va og'izburchilikni mustahkamlashga munosib hissa qo'shgan ulkan ijodkoridir". Bobo shoirning ijodi keng qamrovi va ko'lami bilan qalblarni zabt eta olgan toshqin daryoga o'xshaydi. Shoir umri davomida xalq dardi bilan yashadi, xalqning orzu-umidlari va ezgu niyatlarini kuyladi. Turkiy xalqlar orasida g'oyat mashhur va tillarda doston bo'ldi.

Ushbu qaror aytish mumkinki, davlatimizning ma'naviy hayot sohasida olib borayotgan keng ko'lami islohotlarning xalqimiz turmushidagi amaliy va yorqin namunasidir. O'z zamonasidagi Xivaning mashhur Sherg'ozixon va Qutlimurod madrasalarida talim olgan, ham sharqona, ham islomiy bilimlarni chuqur egallagan shoir navqiron yoshidanoq el nazariga tushib, obro' va e'tibor qozongan. Talabalik paytida qirovchi yoshlar bo'yicha 13-mart kuni Surxondaryo viloyatida bo'lganida ushbu ishlab chiqarish majmuasi faoliyati bilan tanishib, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish, eksport salohiyatini oshirish borasida o'zining tavsiyasi va ko'rsatmalarini bergan edi. O'tgan vaqtda bu yerda 4 million dollarlik mahsulot xorijlik buyurtmachilarga yetkazib berildi.

Ushbu xo'jalik subyekti Germaniya, Belgiya, Turkiya kabi davlatlardan keltirilgan zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlangan. Suxlarda barcha uskuna avtomatlashtirilgan tizim asosida ishlaydi. Bu yerda gilam to'qish uchun mo'ljallangan 4 ta yirik dastgoh mavjud bo'lib, har bir dastgoh bir sutkada 1500 - 2000 kvadrat metr gilam ishlab chiqarishga mo'ljallangan. Muhim jihati, ishlab chiqarishga energiya tejamar texnologiyalar joriy etilgan.

Gilam to'qishda ishlatiladigan 80 foizdan ortiq xomashyo mahalliylashtirilgan, - deydi MChJ rahbari Sobir Rahmonov. - Xususan, polipropilen xomashyosi "Uz-Kor Gas Chemical" korxonasidan xarid qilinadi. Qolgan esa Turkiya va Bangladeshdan olib kelinmoqda. Asosiy xaridorlarimiz orasida Qirg'iziston, Rossiya, Ozarbayjon ham bor.

### Mard bilan nomardning farqi Bilinur maydon ichinda.

Mardlik va nomardlik, ezgulik va yovuzlik, to'g'ri va makkorlik, hasad, riyo, fisqu fasod nima ekanini olam ahli bugun hamishagidan ko'ra aniq-tiniq ko'rib-bilib turibdi. Ajiniyozning mardlik, matonat va shijoat mavzularidagi otashin navolari shuning uchun ham har doimgidan dolzarbroq jaranglaydi. Aynan shu jihatlari, umuminsoniy g'oyalari, ezgu orzu-armonlarining olamshumul ahamiyati tufayli shoir tavalludining 200-yiliga nishonlash chora-tadbirlari YUNESKOning xalqaro yubileyarl rejasiga kiritilgani ham fikrimizning yorqin dalilidir.

"Ellarim bordir" she'rida aynan shu mavzular Jayhun daryoning toshqin dalg'alaridek jo'shqin pardalarda kuylanadi.

**So'rasang elimni, Qojbon, bizlardan, Qalpoq'i qozonday ellarim bordir. Xato chiqsa, kechiringer so'zlardan, Xitoy, Qo'ng'iro' otli ellarim bordir.**

**Yolg'on so'zni ishonitirib aytmagan, To'g'ri yo'ldan bosh ketasa ham qaytmagan, Nomardlarni sira yo'ldosh tutmagan, Nomi qoraqalpoq ellarim bordir.**

(Rustam Musurmon tarjimalari)

She'rida "ellarim" debon alohida faxr bilan madh etilgani - demak, o'zbek, qozoq, qirg'iz, turkman va boshqa ellar-elatlar ham nazarda tutilgani, shak-shubhasiz, ishtibohga o'r'in qoldirmagay.

Yuqorida aytilganidek, sarson-sargardon hayoti davomida o'z eldoshlarini sog'inib yashagan shoir bir umr Mo'ynoqqa talpingan, ovuldoshlarining sog'inchini she'rga solgan.

Beixtiyor davlatimiz rahbarining bugungi o'zgarishlarni nazarda tutib, butun qoraqalpoq diyorida, jumladan, Mo'ynoqdagi bunyodkorlik ishlariga bergan ta'rif yodga tushadi: **"Madaniyat Mo'ynoqdan boshlanadi! Kimki, bizning istohotlarimizga shubha bilan qaraydigan bo'lsa, kelib bugungi Mo'ynoqni ko'rsin!"**

Biz turfa qalam ahli, shoir-yozuvchilar Mo'ynoqqa ijodiy safarlarimiz davomida Ajiniyoz boboning qabri qay bir chekkada, degan gapni ko'p marotaba eshitganmiz. Qoraqalpog'iston Yozuvchilar uyushmasi raisi, taniqli adib Kengesboy Karimovning boboning qabri qadam yetmaydigan adog' joyda, u yerga borish qiyin degan, armonidan ham xabardor edik.

Bugun Mo'ynoq aeroportiga samolyotlar qatnovi yo'lga qo'yilgan. Chor-atrof obod va sarishta. Qarorda alohida e'tibor qaratilganidek, Ajiniyoz boboning Mo'ynoq tumanidagi mangu qo'nim topgan qabrinin obodonlashtirish, shoirga munosib yodgorlik o'rnatish, ushbu sarzaminida Ajiniyoz Qo'siboy o'g'li nomidagi ekopark, ya'ni bog'-xiyobon barpo etish ayni muddaadir.

Ajiniyoz asarlari shu paytga qadar o'zbek tilida ko'p nashr etilmagan bo'lsa-da, lekin u o'zbek xalqining ham shoiri sanaladi. Qo'shiqlarini tinglaganmiz, xalqona o'lanlariga maftun bo'lganmiz. Qarorga muvofiq, shoirning "Tanlangan asarlar" kitobini o'zbek va qoraqalpoq tillarida nashr qilish, shoir faoliyatiga bag'ishlab yozilgan badiiy, ilmiy-ommabop asarlarini qayta chop etish va taqdimotlarini o'tkazish alohida vazifa qilib belgilangan.

Prezidentimiz tashabbusi bilan nashr etilgan "Turkiy adabiyot durdonalari" yuz kitoblar jildlik majmuasida qoraqalpoq adabiyoti, jumladan, Ajiniyoz she'rlariga ham keng o'r'in

berilgan. Shu paytga qadar taniqli ijodkorlarimiz, Qoraqalpog'iston xalq shoiri - Rustam Musurmon va Muzaffar Ahmad tomonidan Ajiniyoz asarlaridan namunalar tarjima qilingan edi. Shu kecha-kunduzda bobo shoir adabiy merosi yangidan tarjima qilindi, to'liq va yaxlit holda chop etishga tayyorlandi. Nasib qilsa, ushbu muhtasham kitob o'zbek va qoraqalpoq tillarida ko'rkam dizayn, zamonaviy matbaa san'ati bezaklari bilan alohida-alohida to'plam shaklida nashr etiladi.

Qarordan kelib chiqqan holda, O'zbekiston va Qoraqalpog'iston Yozuvchilar uyushmalari, uyushmaning viloyat bo'limalari, ijod maktablari va albatta, oliy o'quv yurtlari, umumta'lim maktablari va bilim dargohlari, talaba-yoshlar, keng jamoatchilik ishtirokida belgilangan tadbirlar yuksak darajada o'tkaziladi. Ushbu vazifalar ijrosi bo'yicha reja va dasturlar belgilab olindi.

Ajiniyoz bobo hammamizga daxldor, hammamiz uchun qadrlil. Ustoz Abdulla Oripov tarjimasida mashhur bo'lgan Ibroym Yusupovning "Ayt sen Ajiniyoz qo'shiqlaridan" she'ri qaydagi satrlari buguning ezgulik da'vatiga aylangani ham bejiz emas.

**Men uni tinglasam - qolmay toqatim, Ko'nglimda sayragan mastona bulbul. Men uni tinglasam - tuqqan elatim, Yer jannati bo'lib ko'ringay butkul.**

**Yulduzlarni yerga qaratmoq bo'lsang, Yomon shoirni uyaltmoq bo'lsang, Agar men o'lganda tiriltmoq bo'lsang, Ayt sen Ajiniyoz qo'shiqlaridan!**

Sirojiddin SAYYID,  
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi,  
O'zbekiston xalq shoiri.

## QISQA SATRLARDA

### Qo'shma loyihalarni amalga oshirish - muhokama markazida

*O'zbekiston tashqi ishlar vazirining o'rinbosari Muzaffar Madrahimov Kipr Respublikasi Savdo-sanoat palatasi prezidenti Stavros Stavrou bilan uchrashuv o'tkazdi.*

Muloqotda iqtisodiy diplomatiyani faol rivojlantirish, savdo-sanoat palatalari o'rtasida hamkorlik o'rnatish, ikki mamlakat ishlabarmon doiralarning sheriklik aloqalarini yo'lga qo'yish masalalari muhokama qilindi. Shu nuqtayi nazardan, mamlakatimiz bozoriga kirishga qiziqish bildirgan Kipr Respublikasining yetakchi kompaniyalari vakillarining O'zbekistonga tashrifini tashkil etishga kelishib olindi.

Shuningdek, "yashil" energetika, to'qimachilik, turizm infratuzilmasini modernizatsiya qilish kabi sohalarda qo'shma loyihalarni amalga oshirish masalalari ham e'tibor markazida bo'ldi.

### Shohimardonda kichik GES ish boshladi

*Farg'ona tumanidagi Shohimardon qishlog'ida kichik gidroelektr stansiyasi ish boshladi.*



Zamonaviy mezonlar asosida bunyod etilgan yuqori kuchlanishli ushbu gidroinshoot qahraton qishda ham to'la quvvat bilan ishlaydi. U yiliga 13 million kilovatt-soat elektr energiyasi ishlab chiqarib, 3,5 million metr kub tabiiy gaz sarfining oldini olishga xizmat qiladi.

Yangi inshoot mahalliy aholining elektr energiyaga bo'lgan talabini to'liq ta'minlash bilan birga, ehtiyojdan ortganini qo'shni Qirg'izistonga ham eksport qilish imkoniyatini beradi.

### O'zbekiston mahsulotlarining Londondagi namoyishi

14 - 16-iyul kunlari Londonda bo'lib o'tgan "Pure London - 2024" xalqaro ko'rgazmasida O'zbekistonda ishlab chiqarilgan yengil sanoat va ipak mahsulotlari taqdimoti tashkil etildi. U O'zbekistonning Buyuk Britaniyadagi elchixonasi tomonidan "Samo Art Academy" dizaynerlik uyi bilan hamkorlikda uyushtirildi.

"Pure London" xalqaro ko'rgazmasi moda sanoati vakillari uchun yirik tadbirlardan biri hisoblanadi. Yengil sanoat va charmsanoat mahsulotlari namoyishi qilindigan ushbu yarmarka yiliga ikki marta - fevral va iyul oylarida o'tkaziladi.

Har yili mazkur ko'rgazmada mingdan ortiq taniqli brend va dizaynerlar o'z mahsulotlarini namoyish etadi.

### Avtobus xizmati bepul

*Urganch xalqaro aeroporti uchish-qo'nish yo'lagi rekonstruksiya qilinishi munosabati bilan "Uzbekistan Airports" Nukus va Urganch aeroportlari o'rtasida bepul transfer xizmatini taqdim etadi.*



Aytilishicha, rekonstruksiya davrida barcha rejalashtirilgan reyklar Nukus xalqaro aeroportiga yo'naltiriladi. Avtobuslar yo'lovchilarni jo'nab ketishda ham, uchib kelishda ham manzil aeroportiga olib boradi.

Eslatib o'tamiz, Urganch xalqaro aeroporti uchish-qo'nish yo'lagi rekonstruksiya qilinishi munosabati bilan 20-iyuldan 7-avgustga qadar yopiq bo'ladi.

"Xalq so'zi".

## РЕКЛАМА

# Surxondaryo gilamlari xorijda ham xaridorgir

*Termiz tumanidagi Yangiobod mahallasida joylashgan "Termiz national carpets" mas'uliyati cheklangan jamiyati sanoat usulida yiliga 2,2 million kvadrat metr gilam ishlab chiqarilmoqda. Ushbu ishlab chiqarish majmuasi yirik sanoat korxonalaridan biri sanaladi.*

### O'zbekistonda ishlab chiqarilgan

Davlatimiz rahbari hududlarda ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarning borishi bilan tanishish maqsadida o'tgan yili 13-mart kuni Surxondaryo viloyatida bo'lganida ushbu ishlab chiqarish majmuasi faoliyati bilan tanishib, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish, eksport salohiyatini oshirish borasida o'zining tavsiyasi va ko'rsatmalarini bergan edi. O'tgan vaqtda bu yerda 4 million dollarlik mahsulot xorijlik buyurtmachilarga yetkazib berildi.

Ushbu xo'jalik subyekti Germaniya, Belgiya, Turkiya kabi davlatlardan keltirilgan zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlangan. Suxlarda barcha uskuna avtomatlashtirilgan tizim asosida ishlaydi. Bu yerda gilam to'qish uchun mo'ljallangan 4 ta yirik dastgoh mavjud bo'lib, har bir dastgoh bir sutkada 1500 - 2000 kvadrat metr gilam ishlab chiqarishga mo'ljallangan. Muhim jihati, ishlab chiqarishga energiya tejamar texnologiyalar joriy etilgan.

Gilam to'qishda ishlatiladigan 80 foizdan ortiq xomashyo mahalliylashtirilgan, - deydi MChJ rahbari Sobir Rahmonov. - Xususan, polipropilen xomashyosi "Uz-Kor Gas Chemical" korxonasidan xarid qilinadi. Qolgan esa Turkiya va Bangladeshdan olib kelinmoqda. Asosiy xaridorlarimiz orasida Qirg'iziston, Rossiya, Ozarbayjon ham bor.



So'nggi rusumli uskunalarimiz mahsulot sifatini yuqoriligi ta'minlamoqda. Hozirda amalga oshirilayotgan yangi liniya loyihasi yakuniga yetgach, ishlab chiqarish hajmi yanada ortib, yangi ish o'rinlari ochiladi.

Olti gektar maydonda joylashgan fabrika tayyor mahsulotlarining 50 foizini qo'shni davlatlar - Afg'oniston, Tojikiston va Qirg'izistonga eksport qilmoqda. Viloyatning geografik joylashuvi esa masofa va

mahsulot logistikasiga qulaylik yaratmoqda.

Majmua ishga tushirilgan dastlabki yilda Ozarbayjon va Qirg'iziston davlatlariga 255 ming dollarlik gilam va gilam mahsulotlari eksport qilingan edi. O'tgan yili 4 million dollarlik mahsulot xorijlik buyurtmachilarga yetkazib berildi. Joriy yil oxirigacha ushbu raqam yanada o'sishi kutilmoqda.

Bu yerda o'ndan ortiq turdagi gilamlar tayyorlanmoqda. E'tiborlisi, ishlab chiqarishda aholining xarid qobiliyatidan kelib chiqib, ichki bozor ham inobatga olingan. Eng muhimi, sevlarda 120 nafar kishi doimiy ish bilan band.

- Gilamlarga naqsh bosishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanamiz, - deydi korxonada dizayneri Xolmurod Suyunov. - Ustozim turkiyalik mashhur dizayner Deniz Yaichindan gilamlarga kompyuter orqali avtomatik tarzda gul bosishni qunt bilan o'rgandim. Hozirda mustaqil ravishda gilamlar dizaynini yaratapman. Ilgari qo'lmda hech bir hunarim yo'q edi, ishsiz yurgandim. Korxonada ochilgani men kabi yoshlarga qo'l keldi. Bugun qo'lmda hunarim va barqaror maoshim bor.

Bugungi kunda viloyatda yirik zavodu fabrikalar, biznes tuzilmalari ko'payib bormoqda. Bu iqtisodiy yuksalish va farovonligimiz timsolidir. Zero, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan izchil islohotlardan ko'zlangan asosiy maqsad ham aslida shu - taraqqiyot, yuksalish va farovonlik.

Farhod ESONOV  
("Xalq so'zi").

### Bosh muharrir O'tkir RAHMAT

2020-yil 25-marta O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi - 229. Buyurtma G-742. 14 275 nusxada bosildi. Hajmi - 2 tabloq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:  
Devonxona 71-259-74-51; Kotibiyat 71-259-74-53;  
e'lonlar 71-259-74-55.



Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqdir qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.  
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.  
Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator A. Ismoilov tomonidan sahifalandi.  
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul.  
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:  
100066,  
Toshkent shahri,  
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.  
Navbatchi muharrir A. Soyibnazarov.  
Musahhif S. Islomov.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxonada manzili: Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni - 00.42 Topshirildi - 00.50 1 2 3 4 5 6

# Qirg'izistonda yoshlar o'rtasida tennis bo'yicha J60 tasnifiga kiruvchi "ISSYK-KUL SUMMER - 2024" xalqaro turnirida 4 nafar tennisimiz chorak finalda ishtirok etadi.

## Xalq so'zi Narodnoe slovo

MUASSISLAR:  
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi  
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

